



## VOLEYBOL TA'LIM YO'NALISHIDA TAXSIL OLUVCHI TALABA QIZLARLARDA KASBIY MAHORATLARNI RIVOJLANTIRISH

*Turg'unov B. O'.*

*dotsent*

*Xaydarov I.S.*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti,  
Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasida*

**Tayanch so'zlar:** kasbiy-pedagogik mahorat, voleybol ta'limi, ta'lim jarayoni, kasbiy mahoratlarning shakllanishi, nazariy bilimlar voleybol texnikasini, texnik tayyorgarlik.

**Ключевые слова:** профессионально-педагогическое мастерство, волейбольное образование, образовательный процесс, формирование профессиональных навыков, теоретические знания техники игры в волейбол, техническая подготовка.

**Key words:** professional and pedagogical skills, volleyball education, educational process, formation of professional skills, theoretical knowledge, volleyball technique, technical training.

### **Резюме:**

Ushbu maqola voleybol ta'lim yo'nalishida ta'lim oluvchi qizlarida kasbiy mahoratlarni shakllantirish jarayonini tahlil qiladi. Maqolada kasbiy mahoratlarning mohiyati, nazariy va amaliy bilimlarning integratsiyasi, o'z-o'zini rivojlantirish, innovatsion ta'lim metodlari va baholash tizimlarining ahamiyati keltirilgan. Olimlarning fikrlariga tayanib, ta'lim jarayonida samarali strategiyalarni ishlab chiqish va talabalarda kasbiy mahoratlarni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan. Ushbu ish, voleybol ta'limida o'qituvchilar va talabalarga kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda yordam berishi maqsadida yozilgan.

### **Резюме:**

В статье анализируется процесс формирования профессиональных навыков у девушек, занимающихся волейболом. В статье представлена важность профессиональных навыков, интеграции теоретических и практических знаний, саморазвития, инновационных образовательных методов и систем оценивания. На основе мнения ученых даны рекомендации, направленные на разработку эффективных стратегий в образовательном процессе и развитие профессиональных навыков у студентов. Данная работа написана в помощь учителям и учащимся в развитии профессиональных навыков в волейбольном образовании.

### **Summary:**

This article analyzes the process of forming professional skills in girls studying volleyball education. The article presents the essence of professional skills, the integration of theoretical and practical knowledge, self-development, the importance of innovative teaching methods and assessment systems. Based on the opinions of scientists, recommendations are given to develop

effective strategies in the educational process and develop professional skills in students. This work is written to help teachers and students in the formation of professional skills in volleyball education.

**Kirish.** Voleybol ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talaba qizlarda kasbiy mahoratlarni shakllantirish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Texnik ko'nikmalar, jismoniy tayyorgarlik, psixologik holat va jamoa bilan ishlash qobiliyati, sportchilarning kasbiy rivojlanishida asosiy asosni tashkil etadi. Bular barchasi, o'z navbatida, voleybol muvaffaqiyatli bo'lish uchun talab qilingan shartlarni ta'minlaydi. Shunday ekan, voleybol ta'lim yo'nalishidagi ta'lim jarayonlari, kasbiy mahoratlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, hayotning barcha sohalarini yangilash sharoitida zamonaviy mutaxassisga nafaqat chuqur va mustahkam bilim va rivojlangan fikrlash, balki ularni o'zgartirilgan yoki nostandart vaziyatda qo'llash qobiliyati, paydo bo'lgan muammolarni hal qiladi. Oliy ta'lim tizimida sport faoliyati voleybol yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarida kasbiy mahoratlarning shakllanishining mexanizmlarini ilmiy asoslash muammosiga A.A.Boltayev, A.N.Abdiev, A.A. Ummatov, T.A.Polivayev, T.A.Udalova, N.A.Xudayberdiyeva, A.Akbarov, J.Sh. Umirzokov., P.U. Mamatov., N.F. Sultanbayeva va boshqalar ishlar olib borishgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** voleybol sport turida ixtiyoriy, ijodiy va professional muvaffaqiyatlarga erishish uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalar, texnik va psixologik tayyorgarliklarni rivojlantirish, shuningdek, jamoa bilan samarali ishlash qobiliyatlarini shakllantirishdir.

**Tadqiqotning vazifasi:**

- √ Talaba qizlarga voleybol o'yinida muhim texnik ko'nikmalarni (to'pni qabul qilish, urish, bloklash, pas berish) o'zlashtirishga yordam berish.
- √ Psixologik stressni boshqarish, raqobatga tayyorgarlik va muvaffaqiyatni ta'minlash uchun talaba qizlarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish.
- √ Jamoaviy muammolarni hal qilish, strategiya va taktikada qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- √ Voleybol ta'limida samarali metodikalarni qo'llash, shu jumladan interaktiv va amaliy mashg'ulotlarni olib borish.
- √ Voleybol olamidagi zamonaviy tendensiyalarni, innovatsiyalarni o'rganish va tadqiq qilish.



√ Kasbiy tajribalar, statistika va sport olimpiadalarida ishtirok etish va talaba qizlarning shaxsiy rivojlanishini, kasbiy ixtiyoriylikni, ijodkorlikni ragʻbatlantirish.

√ Vijdonli va masʼul sportchi sifatida rivojlanishlarini taʼminlash.

Ushbu maqsad va vazifalar voleybol taʼlim yoʻnalishida tahsil oluvchi talaba qizlarning kasbiy mahoratlarini shakllantirish jarayonida samarali natijalarga erishish uchun xizmat qiladi. Talabalarning professional rivojlanishi, jismoniy, psixologik va texnik tayyorgarligini oshirish, shuningdek, jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni raqobatdosh, muvaffaqiyatli voleybolchilar etishda asosiy oʻrin tutadi.

**Tadqiqot usullari va tashkil etilishi.** pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, matematik statistika usullari, tadqiqot natijalarining tahlili va ularni umumlashtirish.

Voleybol mashgʻulotlari jarayonida umumiy va maxsus jismoniy sifatlar hamda texnik-taktik malakalarning shakllanishi samaradorligini nazorat qilish yuqori malakali sportchilar tayyorlash borasida muhim amaliy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, ushbu nazorati sport tayyorgarligining dastlabki oʻrgatish bosqichida juda kattadir. Chunki, sport bilan endigina shugʻullanishni boshlagan bolalar organizmi oʻzlarining funksional va jismoniy jihatlari boʻyicha ham katta yuklamalarga tayyor boʻlmaydi. Shuning uchun qoʻllanilayotgan jismoniy va texnik-taktik mashqlar bolalarning yoshga bogʻliq imkoniyatlariga qarab meʼyorlangan boʻlishi lozim.

Yosh voleybolchilarda ish qobiliyatining bir qator texnik-taktik koʻrsatkichlari musobaqa sikllaridan avval dastlabki koʻrsatkichlarga nisbatan oʻsib borgan boʻlsa, shu siklda oʻtkazilgan mashgʻulot va musobaqa yuklamalari taʼsirida susayini (A.A.Boltayev) ilmiy tadqiqot ishlarida takidlab oʻtgan. Bugungi kunda voleybolda deyarli barcha texnik-taktik usullarni ijro etish samaradorligi ustuvor jihatdan oyoq-qoʻl mushaklarining funksional imkoniyatlariga bogʻliqligini asoslab bergan.

A.A. Ummatov, oʻz tadqiqotlarida taʼkidlashicha, dastlabki oʻrgatish bosqichida shugʻullanayotgan yosh voleybolchilar sakrovchanlik sifatini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlik davrida voleybol yoʻnalaishida taxsil olayotgan talabalarni taʼlim olish davrida, talabalar tanlagan mutaxassisligi boʻyicha chuqurlashtirilgan mashgʻulotlarni tashkil qilish va maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerakligini takidlab oʻtkan.

A.N.Abdiev fikricha, 12-14 yoshli voleybolchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, maxsus mashqlarni sport turlariga qarab mashqlarni mashgʻulotlarning tarkibiy qismiga

kiritish, voleybolda texnik-taktik malakalar shakllantirish, maxsus jismoniy tayyorgarlik va jismoniy sifatlarning darajasini oshirish asosiy dolzarb masala bo'lib qolganligini etirof etgan.

Kasbiy va pedagogik mahoratini shakllantirish bo'yicha yetarli darajada ko'p tadqiqotlar mavjud, ammo biz tomondan turli xil sport turlari bo'yicha murabbiylarda ushbu mahoratlarni shakllantirishning mazmuni va usullarini aks ettiruvchi ko'plab ilmiy ishlar o'rganib chiqildi.

Zamonaviy sport natijalarining yuqori darajasi sportchidan yuqori jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda ratsional harakat texnikasiga mukammal egalik qilishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda, vosita harakatlarining tuzilishini batafsil o'rganish va shu asosda sportchilarning harakatlarining texnikasini tayyorlash va takomillashtirish metodikasini optimallashtirish haqida o'rganilgan.

Texnika sportchining musobaqa jarayonida yuzaga keladigan harakatlaridan ajralmas bo'lib, musobaqa harakatlarining zaruriy qismi hisoblanadi. Voleybol bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda texnikaning o'ziga xos xususiyatlari va xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilishga, sportchining vosita harakatlarining oqilona va samarali bajarilishini ta'minlaydigan omillarni tahlil qilish mumkin. Voleybol sport turida bo'lgani kabi, sportchilarning texnik mahoratini oshirish jarayonini tayyorlash va boshqarishda yetakchi rol murabbiyga tegishli hisoblanadi.

Murabbiyning pedagogik mahorati bevosita mashg'ulot jarayonida uning o'yinchining harakat faoliyati ustidan vizual nazoratni amalga oshirish qobiliyati, uning xatolarini tahlil qilish, ularni o'z vaqtida yaxshilash bilan nazorat olib boriladi. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ko'pgina tadqiqotchilar bu mahoratlarni yetakchi deb hisoblaydilar, murabbiylar esa ularning ahamiyatini yuqori baholaydilar.

O'z tadqiqotida I.P.Sokolova ta'kidlaydiki, vosita ko'nikmani shakllantirish bosqichida yosh sportchilar bilan ishlashda quyidagi mahoratlar eng katta ahamiyatga ega bo'ladi: xatoni ko'rish, mashqni qisqa va tushunarli tushuntirish, kuzatish uchun joy tanlash, xatolar sababini ko'rish, sportchining harakatlarini tahlil qilish, yosh va individual xususiyatlarning namoyon bo'lishini farqlash zarurdir. Yuqori malakali sportchilar bilan ishlaydigan murabbiylar uchun quyidagi ko'nikmalar muhim ahamiyatga ega: qisqacha va aniq tushuntirish, voleybolchilarni xatolarni aniqlash mumkin.

Ma'lumki, bir qator nashrlar va tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, Sport faoliyati volaybol yo'nalishi talabalarni sport mashg'ulotida xatolarni yaxshilash qobiliyatini shakllantirishning hozirgi holati pedagogika talablariga



javob bermaydi: xatolarni aniqlash va bartaraf etish uchun zarur bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan mahoratlarning tarkibi o'rganib chiqilmagan; shakllantirilgan mahorat ma'lumotlarining boshlang'ich darajasi o'rganilmagan, shakllantirilgan mahoratlar darajasini baholash usullari ishlab tajribada o'rganib asoslab berilmagan; bundan tashqari, bu kasbiy mahoratlarning shakllanishining nazariy-metodik jihatlari o'rganib chiqilmagan.

V.A.Maginning fikricha, mahalliy sport faoliyati voleybol yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarda eng muhim zamonaviy muammolaridan biri – uni gumanitar bilimlarni mustaxkamlash, mutaxassislar tayyorlash jarayonini rivojlantirish, o'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanilgan holda mashg'ulotni tashkil qilish

S.D.Neverkovich, sport faoliyati voleybol yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarda kasbiy tayyorgarlik masalasining hozirgi holatini o'rgangan, bugungi kundagi mutaxassislarga qo'yiladigan talablar bilan kasbiy tayyorgarlik tarkibida shakllangan amaliyot o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatib o'tgan. Buning asosiy sabablariga muallif quyidagilarni kiritadi: oliy ta'limning nazariy asoslarining yo'qligi; mutaxassislar tayyorlashning bo'lakli, ko'p predmetliligi; metodlarni maktab ta'limi amaliyotidan kattalar ta'limi amaliyotiga mexanik "sudrab kelish"; ko'pincha amaliyotdan ajralgan mavhum bilimlarni uzatishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning sustligini o'z tadqiqotida asoslagan.

N.G.Alekseev, Yu.V.Gromiko, V.A.Zolotniklarning fikricha, kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish zahiralarni izlash ham ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va tarqatish sohasida yangi pedagogik texnologiyalarning kontseptual va nazariy asoslarini yaratish kerakligi ta'kidlangan.

Sport faoliyati voleybol yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish muammosi alohida dolzarblikni kasb etadi, bu talabaning barcha imkoniyatlaridan foydalanishni, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini kasbiy tayyorlash sifatini oshirish uchun qulay psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport faoliyati voleybol yo'nalishi muhim tarkibiy qismlaridan biri bu faol ta'limga e'tibor qaratish qisoblanadi. Umuman oliy ta'lim tizimida faol o'qitishdan foydalanish amaliyoti va tajribasi, va oliy jismoniy ta'limda, xususan, shuni ko'rsatadiki, uning shakllari, usullari va vositalari yordamida shakllantirilgan kasbiy mahorat darajasini maqsadli va samarali oshirish mumkin. Sport faoliyati voleybol yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda faol o'qitish usullarini ishlab chiqish tajribasi alohida e'tibor qaratish kerak.

Voleybol bo'yicha bo'lajak murabbiylarda amaliy harakatlarini bajarish texnikasini yaxshilash bo'yicha kasbiy mahoratlarni shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga asoslangan maxsus metodika ishlab chiqish zarur. Bu shuningdek voleybol texnikasini yaxshilash bo'yicha eng muhim va shakllantirilishi qiyin bo'lgan ko'nikmalar majmuasini aniqlash, texnik xatolarni aniqlash va yaxshilash jarayonida murabbiyning amaliy harakatlari algoritmini ishlab chiqish va voleybol bo'yicha bo'lajak murabbiylarga o'rgatish zarurdir.

**Xulosa.** Voleybol ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talaba qizlarda kasbiy mahoratlarni shakllantirish, faqatgina sportga qiziqishni rag'batlantirishdan iborat emas, balki ularning muvaffaqiyatli va professional voleybolchilar bo'lishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirishini ta'minlashga qaratilgan murakkab jarayondir.

Voleybol ta'lim yo'nalishida kasbiy mahoratlarni shakllantirish, talaba qizlarning sportdagi muvaffaqiyatlari va raqobatdoshligini ta'minlash uchun strategik yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda o'qituvchilar, murabbiylar va pedagogik jamoa talabalarni o'qitish, tayyorlash va motivatsiyalashga mas'ul bo'lib, ularning kasbiy rivojlanishlarida asosiy rol o'ynaydilar.

Kasbiy mahoratlarni shakllantirishni rag'batlantirish, talaba qizlarning voleybol sport turida olishi kerak bo'lgan natijalar va yutuqlar uchun yaratilgan muhitni ta'minlash, shubhasiz, ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli sportchilarga aylantirishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Ayrapetyants L.R. Voleybol. // Uchebnik dlya vsishix uchebnix zavedeniy. T.: Zar qalam. 2010y. 256b.
2. Po'latov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyoti. // o'quv qo'llanma. –T.: 2007y. 105 b.
3. A.A.Pulatov "Voleybol nazariyasi va uslubiyati" darslik. CHIRCHIQ – 2020y. 345 b.
4. A.A.Pulatov "Voleybol nazariyasi va uslubiyati" darslik, Toshkent 2020y.
5. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. // Uslubiy qo'llanma. T.: 2008y. 215 b.
6. Xaydarov, I. (2021). Ways to Prepare for the Profession by Inculcating a Healthy Lifestyle in the Minds of Students : Ways to Prepare for the Profession by Inculcating a Healthy Lifestyle in the Minds of Students . Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu. jspi.uz/index. php/pshedu/article/view/4493>
7. Olimov , A., & Khaydarov , I. (2024). Forming professional skills in female students in the field of volleyball education. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(08), 1–5. <https://doi. org/10.37547/mesmj-V5-I8-01>
8. Xaydarov, I. (2022). Zamonaviy voleybol o'yinida sakrovchanlikni rivojlantirishning dolzarbligi.: Zamonaviy voleybol o'yinida sakrovchanlikni rivojlantirishning dolzarbligi. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 5(5). извлечено от <https://pshedu. jspi.uz/index. php/pshedu/ article/view/4992>